

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHI –O'QITUVCHI MUNOSABATLARI DIALEKTIKASINI TASHKIL QILISH USULLARI

*Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Ta'lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)mutaxassisligi 2-kurs
magstranti*

Qodirova Muqaddasxon Qosimjon qizi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o'qitish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish va uning metodologiyasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'qitish metodi, ta'lim texnologiyalari, verbal muloqot, ta'lim jarayoni, shaxs, didaktika

Аннотация. В статье освещены место и значение использования дидактикоигровых образовательных педагогических технологий, а также методика их применения в процессе обучения природоведению в начальных классов.

Ключевые слова: Метод обучения, образовательные методы, вербальное общение, процесс обучения, личность, дидактика.

Abstract. In the article is lightened the place and importance of didactic game educational technologies implementation in teaching of nature studies in the primary classes and its methodics in the teaching process.

Keywords: teaching method, educational methods, oral speech, teaching process, personality, didactics.

Ushbu muammolarni tahlil qilishdan avval quyidagi ma'lumotlar, tushuncha va atamalar ustida to'xtab o'tish lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar mohiyati o'quvchiga bilim berish, ularni to'liq o'zlashtirishdan iborat. Ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishda asosiy talab o'quvchining hayotiy

tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimi va qiziqishlari asosida yangi bilim berishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi o'zining ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'lmoqda. "O'quvchining ruhiy holatlari, uning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti?", degan savollarning yechimiga bog'liq. Shu jihatdan olganda, pedagogik texnologiya shaxs rivojlanishi bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash va differensiyalash imkoniyatlariga ega. Bu pedagogning ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatiga bog'liq. Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallarini o'quvchi tomonidan qabul qilish va o'zlashtirish samarasini oshiradi. Shu bois shaxsiy kompyuterlar ta'lim vositasiga aylanmoqda. Bu shaxsiy kompyuter o'qituvchining barcha funksiyalarini o'z zimmasiga oldi, degani emas, albatta. Balki o'quvchining shaxsiy kompyuter bilan ishlashi ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda har bir sohaning takomillashishi, rivojlanishi uchun xilma-xil metodlar qo'llanilayotganidek, ta'lim-tarbiya sohasida ham turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Shundan tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik darslarini o'qitishda didaktik o'yinli texnologiyalarning metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki tabiatshunoslik darslarida qo'llaniladigan metodlarning xilma-xilligi o'quvchida fanni bilishga qiziqishini orttiradi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqilligi va o'quv fani faoliyatini ta'qiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etishni talab etadi. Ularni faoliyatiga ongli ravishda yo'llash biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi. Bunday darslarni olib borishda o'quvchining tabiatshunoslik fanidan to'liq bilim olishi, axloqli bo'lishi, biror-bir kasb tanlash iste'dodini ravnaq toptirish, xalqimizning yaxshi

fazilatlarini egallashi uchun avvalo o'qituvchining ijodiy mehnat qilishi talab etiladi. O'qituvchi o'quvchiga nisbatan sergak, ziyrak bo'lib, uning qiziqishi, qobiliyatini hisobga olib, murabbiylarcha muomalada bo'lishi darkor. Shundan keyingina darslarda foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasbga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi. Metodist o'qituvchilarning ko'p yillik tajribalari va kuzatishlaridan didaktik o'yinlar boshqa fanlar qatori tabiatshunoslik darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarning mazmunli bo'lishida eng qulay va samarali usullardan biri hisoblanishi qayd qilingan. Darsda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishi, hozirjavobligini bilishni chuqur egallashga qaratilgan ko'nikma va malakalarni oshirishi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator innovatsion texnologiyalar, jumladan, tabiatshunoslik darslarida rolli o'yinlar, klaster, ishbilarmonlar o'yini va boshqalardan foydalanish zarurligi haqida ham fikr yuritilgan. M.Xolmetov maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining asosiy maqsadida kelajak avlodni jismonan va ruhan sog'lom tarbiyalash, maktabgacha tayyorgarlik tushunchasi bolaning aqliy va maxsus tayyorgarlik yo'nalishlarini o'z ichiga olganligi, avvalo jismoniy tayyorgarlik deganda, kichkintoy o'ziga mos milliy o'yinlarning qoidalari, unda faol ishtirok etishi belgilangan topshiriqlarni bajara olishi haqida fikr yuritgan. J.Tolipova va N.Numanovalar uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi tarkibiga kirgan barcha vazifalarni amalga oshirish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mumkinligi haqida to'xtalganlar. Unda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim, didaktik o'yinli ta'lim, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

Darslarda foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil foydalanish,

nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasbga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi. A.Zikiriyayev va boshqalarning fikricha, ta'lim jarayonida didaktik tamoyillar muammosi barcha davrlarda o'quvchilarning diqqat-e'tiborida bo'lgan. Ular bu borada mutaxassislarning erishgan yutuqlari bilan birga hozirga qadar ta'lim tamoyillari tizimining ilmiy asoslari mukammal ishlab chiqilmaganini qayd etishgan. A.Yusupova, R.Qurbonniyozovlar fikricha, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limda eng zamonaviy hisoblangan pedagogik texnologiyalarni qo'llashga erishish masalalariga hamda inson omiliga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning negizida "tizimli yondashuv" yotadi. Pedagogik texnologiyaning asosini ham "tizimli yondashuv" tashkil etadi va uning eng muhim belgisi hisoblanadi. Uzluksiz ta'limda pedagogik texnologiyaning asosini tizimli yondashuv loyihalari va shu bilan birga boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyadan samarali foydalanishda nimalarga e'tibor berish lozimligi ko'rsatilgan. Undan tashqari ma'lumki, an'anaviy ta'limda, ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish uslublari, nazorat natijalarini baholash kabi ko'plab jarayonlar ma'lum bir tizimsiz amalga oshirilgan, ya'ni ularni bajarish oldidan loyihalashtirilmagan. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga tayyor ma'lumotlar berib, o'quvchilar ularni xotiralarida saqlab qolishlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eski ta'limda kafolatlangan natijaga erishish fikri yuritilmagan. Boshlang'ich ta'limda har bir masalaga chuqur yondashib, oldindan loyihalashtirilgan ma'lumotlarni faqat o'qituvchi beribgina qolmay, balki o'quvchilarni mustaqil ishlashi, darsda o'qituvchi bilan fikr almashishiga e'tibor qaratilgan va kafolatlangan natijaga erishish haqida fikr yuritilib, an'anaviy va noan'anaviy ta'limni taqqoslab, ularning afzalliklari ochib berilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

O.Berdiyeva hozirgi iqtisodiy o'tish davrida ta'lim jarayonini isloh etishda muammolar mavjudligi va shu muammolarning bir qismini hal etishda o'qituvchidan tashabbuskorlik, izlanuvchanlik va ijodkorlik talab qilinishi va ta'lim jarayonida yangi

pedagogik texnologiyaning maqsadi, maqsadga erishish uchun undan samara berilishiga to'xtalib, yangi mavzuni tushuntirishda o'qituvchi reja asosida savol-javob, chizma, kerakli kompyuter vositalaridan foydalanishi lozimligini keltirgan. Shundagina o'qituvchining xotirasida mavzu uzoq vaqt saqlanib qolishi to'g'risida fikr yuritilib, o'qituvchi dars o'tishda nimalarga e'tibor berishi kerakligi haqida ma'lumotlar keltirgan. R.Safarova va L.Shermatov o'z asarlarida pedagogika fanining muammosi va ularni qanday yechish kerakligi to'g'risida to'xtalganlar. Ta'lim-tarbiya bo'yicha uning samaradorligini oshirish uchun ilmiy jihatdan shaxsni rivojlantirish va uning manfaatlarini uyg'unlashtirish, dunyoqarashini moddiy jihatdan rivojlantirish haqida ham fikr yuritganlar. Bunda o'quvchi jamiyat taraqqiyotini faol rivojlantirishda ijtimoiy va siyosiy, texnikaviy apparatlardan foydalanib, o'z ustida ko'proq ishlashi lozimligi ko'rsatib berilgan. U.Nishonaliyev tadqiqotlarida dasturli texnologik vositalar majmuasi va ularni kompyuter orqali ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash, axborot va pedagogic texnologiyaning metodlaridan foydalanish, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari va vositalari, o'quvchilarning ijobiy, shaxsiy sifatleri to'g'risida aytib o'tilgan va shunga amal qilish lozimligi qayd etilgan. Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun o'ziga xos vositalar zarur bo'ladi. Har bir pedagogik texnologiyada qo'llaniladigan vositalar umuman o'xshash bo'lib, ularning turlari ko'p. Ularni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: verbal, noverbal, vizual, studiya, tabiiy, o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari. Verbal vositalarning asosini axborot tashkil qiladi. Bular so'zlar bilan ifodalanadigan axborotlar bo'lib, ularni so'z orqali ifodalab berish uchun o'qituvchi uni o'zlashtirgan bo'lishi, ya'ni shu axborot haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, pedagogik texnologiyalarning verbal vositalari o'qituvchining bilimlari darajasidagi axborot hisoblanadi. Shu sababli hozirgi ta'lim jarayonida faqat o'qituvchi va o'quvchilarning ishtirok etishi yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy ta'limni amalga oshirishning yana bir zarur sharti o'quv fanlari bo'yicha axborot manbalari, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalaridan tez

va qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir o'qituvchi va o'quvchi erkin foydalana oladigan sharoit yaratishdan iborat. Ya'ni, hozirda sifatli ta'lim berish uchun o'qituvchi o'quvchiga zarur axborotlarni yetkazib turuvchi xizmatdan iborat faoliyatni tashkil qilish zarur. Bu yo'nalish axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish yo'nalishi deb nomlanadi. Shu axborotlarni o'quvchilar tushuna oladigan mantiqiy shakllarda ifodalash o'quvchi bilan o'qituvchining verbal muloqotini tashkil qiladi. Verbal muloqot shakllari turli bo'lib, ularning asosiylari nutq so'zlash, suhbatlashish, savol berish, savolga javob berish, bahs, munozara, xabar berish, maslahat, nasihat, tanbeh, tabrik, salomlashish, xayrlashish kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu verbal muloqot shakllarida qo'llaniladigan nutq intonatsiyalari so'zlovchining fikri uning maqsadiga muvofiq bo'lgan ma'no-mazmunni chuqurlashtirish, yaqqollashtirish imkonini beradi. O'qituvchi o'quvchi uchun ma'lum bo'lgan tushunchalarga asoslangan holda yangi axborotlar bilan tanishib, uni tushuntirib beradi. Bu jarayonda o'quvchilar diqqatni jamlash, tinglash, eshitish, anglash, idrok qilish, mantiqiy fikrlash, xotirada saqlash, qayta eslash faoliyatlari bilan band bo'ladilar. Bunda o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, manfaatdorligi, qobiliyat, iste'dod, iqtidori uning muvaffaqiyati asosi bo'ladi. Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekti deb, o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishni bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishning innovatsiya jarayoni deb qarash mumkin. Biz bunda "innovatsiya"ni biror-bir sinf o'quvchilari faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya sub'ekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yondashuvni tushunamiz. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik jamoada muvaffaqiyatli joriy qilinishi va yaxshi samara berishi bir qator omillarga bog'liq. Ularni uchta katta guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh omillari kiritilayotgan yangilikning mazmuni, sifati va boshqa xususiyatlari bilan bog'liq. Bunda yangilikning mukammalligi, tajribada sinab ko'rilganligi va milliy-mahalliy sharoitga mosligini chuqur o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi guruh esa yangilikni kiritishga oid yondashuv bilan bog'liq omillarni qamrab oladi: Yangilik

kiritishning rejalashtirilganligi, bosqichma-bosqichlilikka amal qilinganligi. Uchinchi guruh ijtimoiy-psixologik omillar bo'lib, uning tarkibiga yangilikka pedagogik jamoa munosabati, rahbarlik uslubi va boshqalar kiradi. Har qanday yangilik kiritilishi, shu jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyaning joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa a'zolarining yangilikni qanday qabul qilishi, unga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Odatda yangilikning kiritilishi jarayonida yangilikka nisbatan psixologik g'ov paydo bo'ladi. Psixologik g'ov yangilikka tegishli bo'lgan pedagogik jamoaning o'z yangiligiga nisbatan befarq yoki salbiy munosabatida namoyon bo'ladi. Kishilarda bunday psixologik g'ov ochiq yoki yashirin holda uchrashi kuzatiladi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, bunday g'ov kishilarning odatdagi faoliyat uslubini afzal ko'rishi, noaniqlikdan qo'rqishi, ortiqcha ishlarning paydo bo'lishi, innovatsiyaning zaruriyati yoki muhimligini tushunmasliklari bilan bog'liq. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish samaradorligiga pedagogik jamoa rahbarlarining yangilikka munosabati, boshqaruv uslubi, rahbar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatlari kuchli ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jamoa a'zolarining bu yangilik haqida to'liq zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlanishi hamda ularning bu munosabatni yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlar olib borishi zarur. Ta'lim jarayonida didaktik o'yin texnologiyalari didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Didaktik o'yinli darslar o'quvchilarning bilim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unligi, mazmuni va mohiyatiga ko'ra syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlik o'yini, konferensiyalar va o'yin mashqlariga ajratiladi. Darsda didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanishdan oldin bunday o'yinga mos keluvchi mavzuni tanlash lozim. Dars o'tishda didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanganda dars davomida didaktik jarayon ketadi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda yo'lga qo'yish o'quvchilarning bilimni belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etishdir. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u

yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi faoliyatini ta'minlash asosida jamiyat tomonidan maktab akademik litsey, kasb-hunar kolleji oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyotida alohida o'rin tutadi. **MUHOKAMA** O'qitish metodi dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi faoliyatining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitishning aniq harakatlar, amallar yoki metodlar majmuasi sifatida joriy etiladi. Pedagogik nashrlarda o'qitish metodlarini faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchilar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Berdiyeva O. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2003, 1-son. –16-b.
2. Zikiriyayev A. va boshqalar. O'quvchilar bilimni tekshirishda innovatsion texnologiyalar. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2001, 6-son. –19-b.
3. Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va yechimlari. // "Pedagogik ta'lim" jurnali, 2000, 3-son. –11-b.
4. Norbutayev X. Меjпредметные svyazi pri obuchenii prirodovedeniyu. // "Nachalnaya shkola". M., 2011, № 11. –S. 25.
5. Safarova R, Shermatov L. Pedagogikaning taraqqiyot yo'li. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2002, 2-son. –14-b.
6. Xolmetov M. Tarbiyada didaktik o'yinlarning ahamiyati. // "Ma'rifat", 2002, 6-son. –16- b.
7. Yusupova A, Qurboniyozov R. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammolari. // "Pedagogik ta'lim" jurnali, 2000, 3-son. –18